KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 47 (577) 2025-YIL, 22-OKTABR



DUNYONI ZABT ETGAN "ANDIJON POLKASI"

Sevimli kuylarimizdan biri "Andijon polkasi"ga raqsga tushmagan birorta inson topilmasa kerak. Ayniqsa, yigitlar raqsga tushganda davralarga fayz kiradi. Xorijiy davlatlarda yangraganda ham ko'z oldingizda sho'x va shodon o'zbek yigitlari gavdalanadi. Qolaversa, sog'lom insongina raqsga tushadi.

Xalqimiz orasida "Orif garmon" nomi bilan mashhur sozanda va bastakor Orifjon Toshmatov milliy ramzimizga aylangan "Andijon polkasi" kuyining muallifidir. Ma'lumki, garmon sozi asrlar davomida asosan Xorazm vohasi musiqiy hayotida yetakchi o'rin tutgan. Andijonda bu sozdan foydalanish an'anasi bo'lmagan. Orifjon Toshmatov garmon chalishni o'z tog'asidan o'rganib, uning sirlarini puxta o'zlashtirdi. Ilk bor Andijondagi konsert dasturlariga kiritib ijro etdi. Garmon ovozining o'ziga xos jozibasi, yangi nafas bilan yangrashi tomoshabinlarni hayratga soldi. Shundan keyin bastakorni hamma "Orif garmon" deya boshladi. Andijon shahridagi madaniyat va istirohat bog'i (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi bog') har kuni oqshom chog'i shinavandalar bilan gavjum bo'lardi. Sahnada kuy va qo'shiqlar yangrar, ammo ularning ko'pchiligi xorij musiqalariga moslashtirilgani sezilib turardi. Bularni tinglab Orif garmon o'ylanib qoladi: "Nega bizda barcha imkoniyat bo'la turib, o'z kuyimiz yo'q? Biz o'z yurtimiz ohangini yaratmaymiz?"

Shu ilhom bilan u yangi, sho'x va xalq ruhini ifoda etuvchi kuyni bastaladi. 1922-yilda u birinchi marta aynan, shu bog' sahnasida yangradi. Unga "Andijon polkasi" nomi beriladi. Kuyning ohangi shunchalik ta'sirli chiqadiki, qisqa vaqtda nafaqat mamlakat bo'ylab, balki qo'shni davlatlarda ham keng tarqaldi. "Andijon polkasi" xalq qalbidan joy olgach, tez orada raqs ko'rinishida ham ishlandi. 1957-yilda shu nomli mahoratli raqs ansambli tashkil etiladi. Bu jamoa qisqa fursatda Moskva, Kiyev, Boku, Minsk va Tbilisida bo'lgan madaniyat kunlarida "Andijon polkasi" bilan ishtirok etib, tomoshabinlar qalbini zabt etdi. Shu tariqa ushbu kuy va raqs o'zbek san'atining xazinalaridan biriga aylandi. Samarqandlik sayohatchi Otabek Ismoilov Gruziyaga qilgan safarida qiziq voqeaga duch kelganini hikoya qiladi: "Biz Gruziyada yurganimizda tasodifan "Andijanskaya polka" deb yozilgan restoranni ko'rib qoldik. Tabiiyki, bu o'zbekistonliklarga tegishli restoran, deb o'yladik. Hayratlanarlisi, ishchi-xodimlar gruzinlar ekan. So'rasak, bu restoran necha yillar oldin ochilgan bo'lib, o'sha paytlarda "Andijon polkasi" kuyi juda mashhur bo'lganidan shunday nom berilgan. Hatto hozirgacha har kecha mijozlar uning ijrosiga raqsga tusharkan..." Bu voqea milliy musiqa madaniyatimizning chegara bilmas ta'sirini yana bir bor ko'rsatadi.

2022-yilda "Andijon polkasi" yaratilganiga 100 yil to'ldi. Shu munosabat bilan Andijon viloyati hokimligi tashabbusi bilan maxsus "Andijon polkasi oyligi" e'lon qilindi. Har yili ushbu kuy asosida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarda minglab yoshlar ishtirok etadi. Ular garmon, doira, rubob va qo'shiq orqali ushbu madaniy merosni zamonaviy ijroda qayta yangratishga harakat qilishadi. Bu nafaqat musiqiy an'anani davom ettirish, balki milliy g'urur va madaniyatni asrash hamdir. "Andijon polkasi" xalq qalbidan chiqqan, xalq bilan birga yashaydigan kuydir. U nafaqat musiqa, balki o'zlikni anglash, milliy g'urur va yaratuvchanlik ramzidir. Orif garmon yaratgan bu ohangda xalqning shodlik hissi, mehnat zavqi va hayotga muhabbati mujassam. Yuz yil o'tsa ham hanuz barchamizni raqsga chorlab, Vatan ohangini dillarimizda yangratmoqda.

Saminjon HUSANOV
"Xalq so'zi".

G'URUR VA ILHOM MANBAI

Dunyodagi ko'plab davlatlarda faoliyat yuritganman. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi, madaniyati va tili o'ziga xos. Biroq shunday bir haqiqat borki, dunyodagi har bir millat ham o'z ona tilida ta'lim olish imkoniga ega emas. Ayrim yurtlarda bolalar hatto o'z ona tilida emas, balki boshqa tilda o'qishga majbur bo'ladi.



O'zbekistonga kelgach, men uchun eng ta'sirli jihat shunda bo'ldiki — bu yerda bolalar bog'chasidan to oliy ta'limgacha o'z ona tili — o'zbek tilida ta'lim olish imkoniyatiga ega. Davlat tili sifatida ishxona va rasmiy muhitlarda ham aynan shu til qadrlanadi. Bu holatni ko'rib quvondim. Chunki dunyoda ko'plab insonlar o'z ona tili bo'la turib, hatto oila muhitida ham boshqa tilda muloqot qilishga odatlangan. O'zbek yigit-qizlarining esa ona tilida faxr bilan so'zlashlari, bu tilda erkin fikr bildirishlari menga juda yoqdi.

O'zbek tili nafaqat go'zal, balki qalbdan chiqadigan, hissiyotni ifoda eta olishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu tilda so'zlaganda inson qalbida samimiyat, mehr va hurmat uyg'onadi. U orqali xalqning tarixi, madaniyati va ruhi seziladi. To'g'ri, har bir til insonni o'z millati bilan bog'laydi, ammo o'zbek tili bu bog'lanishni mehr va iltifot bilan mustahkamlaydi.

Har bir til millatning yuragi, uning ma'naviyati va tarixini ifoda etuvchi bebaho xazinadir. Shu ma'noda, o'zbek tili ham jahon tillari qatorida munosib o'rin egallaydi. Uning boy lug'ati, so'z boyligi va musiqiy tovushlari orqali xalqning madaniyati, ma'rifatga intilishi va mehr-oqibati namoyon bo'ladi. Bugun o'zbek tili nafaqat mamlakat ichida, balki dunyo miqyosida ham o'z o'rni va ahamiyatini tobora mustahkamlab bormoqda.

O'zbek tili — bu yurtning iftixori. Uni asrash va ulug'lash esa har bir fuqaroning burchi, deb o'ylayman.

Abbey MARSDEN,
Andijon shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o'qituvchisi,
"Do'stlik" ordeni sohibi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

ADOLATSIZLIKKA NISBATAN KURASHISHNI O'ZIMIZDAN BOSHLASHIMIZ KERAK

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tushunchasini hayotimizda yanada keng qaror toptirish birinchi darajali vazifa ekaniga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bilamizki, korruptsiyada har doim kamida ikki tomon ishtirok etadi. Bunda, bir tomondan, noqonuniy yo'l bilan o'zi yoki uchinchi shaxs uchun boylik orttirayotgan mansabdor shaxs hamda boshqa tomondan mansabdor shaxsdan aktiv yoxud passiv usulda uning manfaatini ko'zlovchi qarorning qabul qilinishini kutayotgan shaxs. Korruptsiyani, soddaroq qilib, o'z nafsi, manfaati yo'lida qonunni ham chetlab o'tish orqali g'arazli maqsadi hamda biror narsaga erishish, deyish mumkin.

(Davomi 2-betda).

"KASALLIKNI DAVOLASHDAN KO'RA, UNING OLDINI OLISH AFZAL"

korrupsiyaga qarshi kurashishda ana shunday yo'l tutmog'imiz darkor

Hozirda korrupsiya tushunchasini yoritishda bir qancha ta'riflar mavjud. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta'rif quyidagicha berilgan: "Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir".

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu jinoyatga "Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu korrupsiya va poraxo'rlik, jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin.

(Davomi 2-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

ADOLATSIZLIKKA NISBATAN KURASHISHNI O’ZIMIZDAN BOSHLASHIMIZ KERAK

(Davomi. Boshi 1-betda).

Bugungi kunda yurtimizda ushbu illatga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biriga aylangan. Uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi ham aniq. Bu borada O’zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konventsiyasiga qo’shilishi islohotlarning dastlabki muhim qadami bo’ldi. Uni amalga oshirishning milliy mexanizmi sifatida “Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonun, Prezidentimizning “Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.



O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yilning 3 yanvarida “Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonunni imzoladi. Qonunda korruptsiyaga qarshi kurashuvchi davlat organlari belgilab berildi. Ushbu qonunning 5-moddasida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari ko’rsatib o’tilgan bo’lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o’z vaqtida aniqlash, ularga chek qo’yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi printsipini ta’minlashdan iboratdir.

Jamiyatimizda korruptsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo’l qo’ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekanini uqtirilmoqda.

Korruptsiya har qanday davlatning ertangi kuni, kelajagi uchun xatarli, tahdidli kushandadir. U iqtisodiyotga katta zarar yetkazib, mamlakat taraqqiyotini izdan chiqaradi. Jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish o’ta dolzarb masaladir. Garchi uni bajarish uchun mas’ul idoralar belgilangan bo’lsa-da, uning to’laqonli ro’yobga chiqishi uchun har bir fuqaro o’zida mas’uliyat his etsa, qo’yilgan maqsad va muddaoga erishish mumkin.

Har birimiz qaerda, qanday muammoga duch kelsak, uning hal etilishida mas’ul shaxslarning mas’uliyatsizligi yoki ta’magirligiga guvoh bo’lganda sharoitga bo’ysunish, indamay ketaverish yoxud chidash o’rniga bong urishimiz kerak. Mas’uliyatsizlikka, adolatsizlikka nisbatan kurashishni o’zimizdan boshlashimiz darkor. Shunda mudrayotgan mansabdor uyg’onadi, zimmasida qanday mas’uliyat borligini his etadi.

G’iyosiddin OBIDINOV,
Andijon viloyati sudining fuqarolik ishlari bo’yicha sudlov hay’ati sudyasi.

“KASALLIKNI DAVOLASHDAN KO‘RA, UNING OLDINI OLISH AFZAL”

korrupsiyaga qarshi kurashishda ana shunday yo‘l tutmog‘imiz darkor



(Davomi. Boshi 1-betda).

Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishidir” deb bejiz ta’rif berilmagan.

Korrupsiya har qanday davlatning ertangi kuni, kelajagi uchun xatarli, tahdidli kushandadir. U iqtisodiyotga katta zarar yetkazib, mamlakat taraqqiyotini izdan chiqaradi. Shu boisdan mamlakatimizda bu borada qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi shakllandi.

Ushbu illatga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida 2008-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 13-oktyabrdagi «Korrupsiyaga qarshi» Konvensiyasini ratifikatsiya qildi, shuningdek, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Korrupsiyaga qarshi» konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, Davlatimiz 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentyabr) qo‘shildi.

2017-yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va 2021-yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Prezidentimizning 2021-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari, ya’ni Komplayens nazorat tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga quyidagilar kiradi:

Bosh prokuratura;
Milliy xavfsizlik xizmati;
Ichki ishlar vazirligi;
Adliya vazirligi;
Bosh prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Qonun bilan yuqorida sanab o‘tilgan organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan.

Bundan tashqari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, OAV va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etadi.

Xalqimizda kasallikni davolashdan ko‘ra, uning oldini olish afzal degan naql bor. Zero korrupsiya keltirib chiqaradigan oqibatlarini kutib turmasdan bu illatga oid jinoyat va huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularga chek qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

N. ZAYNABIDINOV,
Andijon viloyati sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati sudyasi.

«XIZMAT HAQI» QACHON YO’QOLADI?

Hayotimizda korrupsiya iborasi tez-tez tilga olinadi. Uni siyosat, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi kabi yirik tizimlardagi illat deb bilamiz. Ammo bu illat bizning shaxsiy hayotimizga qanday chuqur kirib borganini har birimizning baxtimiz, erkinligimiz va hatto sog‘ligimizga ham salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘pchiligimiz sezmaymiz.

Korrupsiya nafaqat katta pullarning o‘zlashtirilishi, balki har bir oddiy fuqaroning kichik “”xizmat haqlari" va “ko‘mak pullari” orqali ham namoyon bo‘ladi.

Oddiy bir misol bilan boshlaylik. Yo‘lda harakatlanayotganimizda qoidani buzib qo‘ydik. Qonunga ko‘ra bizga jarima yozilishi kerak. Ammo ba’zan “shartnoma” tuzish taklif qilinadi. Bu shartnoma bizning cho‘ntagimizdan biroz pul chiqishi evaziga, qoida buzarlik nomimizda qolmasligini, kelajakda qandaydir muammolardan qutqarishni va’da qiladi. Afsuski, ko‘pchilik bu yo‘lni tanlaydi. Bu bizning ham mansabdor shaxsning ham vijdoniga qanday ta’sir qiladi? Bunday yengil yo‘lni tanlagan inson ertaga boshqa murakkabroq vaziyatda ham qonundan chetga chiqishni afzal ko‘radimi? Bu kichik bir holat, lekin u bizning qonunga hurmatimizni, jamiyat oldidagi ma’suliyatimizni pasaytiradi.

Bu “to‘lovlar”ning oxiri nima bo‘ladi?

Bu, avvalo, oddiy fuqaro sifatida bizning huquqlarimizning poymol etilishidir. Eng yomoni esa bizda “hamma narsa pul bilan hal bo‘ladi” degan noto‘g‘ri fikrni shakllantiradi.

Endi keling, qoidabuzarlik va korrupsiya bir-biri bilan qanday bog‘liq ekanligini ko‘rib chiqaylik. Tasavvur qiling, hayotimizda ko‘p uchraydigan bir holat: haydovchi hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan holda, ya’ni haydovchilik guvohnomasisiz, avtomobil boshqarib yuribdi. Bu nafaqat o‘zi uchun, balki yo‘ldagi boshqa barcha ishtirokchilar uchun ham katta xavf tug‘diradi. Chunki bunday shaxs yo‘l harakati qoidalarini ham bilmasligi, ham unga rioya qilish irodasiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Agar yo‘l patrul xizmati xodimi bunday shaxsni to‘xtatsa, qonuniy chora ko‘rilishi kerak. Yo‘qsa, haydovchilik guvohnomasi olmaguncha va tegishli jarimalarni to‘lamaguncha avtomobilni boshqarishdan cheklanishi lozim. Ammo bu yerda ham korrupsiya "yo‘lakchasi" paydo bo‘lishi mumkin. Balki, qonuniy jazo choralarini chetlab o‘tish uchun ma’lum bir miqdorda "xizmat haqi" taklif etiladi. Va afsuski, bu taklif qabul qilinsa, natija nima bo‘ladi? Qonunni buzgan shaxs jazolanmasdan qutulib qoladi. Bu esa unga kelajakda ham bu qilmishni takrorlashga undaydi, chunki u "qutulish yo‘lini" topishni o‘rgangan.

Bu esa bizning jamiyatimizda tengsizlikni yanada kuchaytiradi. Bir tomondan, qonun-qoidalarga rioya qilib, haydovchilik guvohnomasini olgan, to‘g‘ri yo‘l tutgan fuqarolar bor. Boshqa tomondan esa, huquqqa ega bo‘lmagan holda mashina haydab, "yaxshi yo‘l" bilan jazolardan qutilib qolayotganlar. Bu ikkinchi toifa shaxslar o‘zining qoidabuzarligi va korrupsiyaga qo‘l urishi evaziga hech qanday mehnat, bilim yoki harakat qilmasdan imtiyozga ega bo‘ladi. Bu esa "hamma qonunni buzib, keyin pul bilan qutulsa bo‘ladi" degan fikrni yanada mustahkamlaydi.

Korrupsiya bilan qutilib qolish bu nafaqat qonun ustuvorligini buzish, balki bizning shaxsiy hayotimizga, kelajagimizga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U bizda adolatsizlik hissini uyg‘otadi, jamiyatga ishonchni susaytiradi. Eng muhimi, bunday tizimda hech kim xavfsiz emas. Bugun qoidani buzib, pul bilan qutilib qolgan haydovchi ertaga yo‘lda kimnidir jiddiy jarohatlashi yoki hatto o‘limiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, mansabdor shaxslarning o‘zi korrupsiya bilan kurashish o‘rniga, uni qo‘llab-quvvatlasa yoki undan foydalansa, bu eng katta fojia. Chunki ular qonunni himoya qilishi, fuqarolarning huquqlarini ta’minlashi kerak. Ammo ular aksincha, o‘zlari qonunni poymol etishga sababchi bo‘lsalar, jamiyat uchun umid qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, huquqqa ega bo‘lmagan holda mashina haydash va korrupsiya orqali jazolardan qutilib qolish holatlari jamiyatimizning salomatligiga jiddiy zarba beradi. Bu nafaqat shaxsiy hayotimizni xavf ostiga qo‘yadi, balki iqtisodiyotimizni, davlatning barqarorligini ham zaiflashtiradi. Biz hammamiz birgalikda, qonunga itoat qilish, korrupsiyaga qarshi qat’iy turish orqaligina sog‘lom va adolatli jamiyat qura olamiz. Har bir fuqaro o‘zining mas’uliyatini his qilishi, qonunni buzganlarni fosh etishi va korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishi shart. Aks holda, biz o‘zimizni va kelajak avlodlarimizni xavf-xatarga duchor qilgan bo‘lamiz.

Nozima YUSUFBEKOVA.

XALQARO HAMKORLIK KO‘LAMI KENGAYMOQDA

Keyingi yillarda mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarining rivojlangan mamlakatlar oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, Andijon davlat tibbiyot institutida ham bu borada e’tiborga molik ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda Andijon davlat tibbiyot institutida xorijning tibbiyot oliy ta’lim muassasalari bilan mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

– Institutimiz tomonidan belgilangan rejalar, chora-tadbirlar doirasida xorijiy davlatlardagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, tibbiy markazlar, klinikalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha zarur ishlar olib borilmoqda, – deydi Andijon davlat tibbiyot instituti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor Farruxbek Rasulov. – Jumladan, hozirga qadar Italiya, Hindiston, Portugaliya, Rossiya, Slovakiya, Ukraina, Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya, Belarus, Polsha, Turkiya, Malayziya, Pokiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston singari 20 ga yaqin davlatlardagi 60 dan ortiq xorijiy tibbiyot universitetlari, institutlari, klinikalari bilan hamkorlik o‘rnatilgan. Umuman, institutimiz tomonidan xorijlik hamkorlar bilan 105 ta xalqaro shartnoma imzolangan.

Bugungi kunda institutda xorijdan kelib tahsil olayotgan talabalar soni ming nafardan ortdi. Shuni inobatga olgan holda Qirg‘iziston, Tojikiston, Xitoy, Hindiston va Pokistondan kelib o‘qimoqchi bo‘lganlar hisobiga, viloyatda tibbiy ta’lim eksportini yiliga 20 million dollardan oshirish, shuningdek, xorijdan kelib o‘qiyotgan talabalarga yanada qulaylik yaratish maqsadida “talaba vizasi” joriy qilish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda institut klinikasida faoliyat yuritayotgan 150 nafar yosh mutaxassis dunyoning rivojlangan mamlakatlariga borib malakasini oshirib qaytdi. Ular klinikada mustaqil ravishda yuqori texnologik davolash muolajalarini amalga oshirish tajribasiga ega.

Ayniqsa, institutning Rossiya Federatsiyasining tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorligi mustahkam asoslarga ega. Ayni kunda institut Rossiyaning Privoljskiy nomidagi tibbiy tadqiqot universiteti bilan stomatologiya, yuz-jag‘ jarrohligi bo‘yicha klinik ordinatura (1+1) yo‘nalishi, Dog‘iston davlat tibbiyot universiteti bilan stomatologiya bakalavriat ta’lim (3+2) yo‘nalishida, shuningdek, Qozon federal universiteti, I.P.Pavlov nomidagi 1-Sankt-Peterburg davlat tibbiyot universiteti, Sankt-Peterburgdagi I.I.Myechnikov nomidagi Shimoliy-G‘arbiy davlat tibbiyot universiteti, V.A.Almazov nomidagi Milliy tibbiy tadqiqot markazi bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan.

Ana shu hamkorlik doirasida Dog‘iston davlat tibbiyot universiteti bilan stomatologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishida (3+2) qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgan. Dastur doirasida bugungi kunda 47 nafar talaba tahsil olmoqda.

Institut professor-o‘qituvchilari, mutaxassislari Rossiya Federatsiyasining oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot markazlarida tajriba va malakasini oshirmoqda. Xususan, 2023-2025 yillarda institutning 100 nafarga o‘qituvchi va mutaxassisi Rossiyada malaka oshirib qaytdi.

Shuningdek, Germaniya davlatining qator nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan ham mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Rostok universiteti bilan ilm-fan, ta’lim, ilmiy faoliyatni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, doktoranturani rivojlantirish, shu bilan birga, innovatsion radiologiya, urologik onkologiya, klinik radiologiya sohalarida mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha hamkorlik olib borilmoqda.

Berlin shahridagi Xelios klinikasi, Berlin universiteti tibbiyot fakulteti bilan esa xodimlarning klinik onkologiya va radiologiya bo‘yicha malaka oshirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish yo‘nalishida hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuvga erishilgan.

Koreya milliy transport universiteti bilan hamkorlikdagi Xalqaro qo‘shma ta’lim dasturi doirasida “Parameditsina” yo‘nalishida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Hozirda ushbu yo‘nalishda 1- va 2- bosqichda 16 nafar talaba tahsil olmoqda.

Keyingi ikki yil davomida Hindiston bilan hamkorlik ko‘lami ancha kengaydi. Hozirda Andijon davlat tibbiyot instituti Hindiston Respublikasining 11 ta yetakchi oliy o‘quv yurti bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

Andijon davlat tibbiyot institutining Hindiston davlatida 3 ta, Janubiy Koreyada 1 ta vakolatli ofisi ochildi. Bu albatta, institutga xorijlik talabalarni jalb etish va abituriyentlarni qiziqtirgan savollarga shu davlatlarning o‘zida to‘liq javob olishlariga imkon beradi.

2023 yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston – AQSH sog‘liqni saqlash haftaligi doirasida Uzbek American Medical Association (O‘zbek-Amerika tibbiyot assotsiatsiyasi) hamda AQSHning Pittsburg universiteti, CyberPatient kompaniyasi bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan. Ana shu memorandumlar doirasida bugungi kunda amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari Milliy universiteti (National University) professorlari institutga kelib, o‘qituvchilar va talabalarga mahorat darslari o‘tkazdi. Ular bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish yuzasidan kelishuvlarga



erishilgan. Keyingi ikki yil davomida institutning o‘nlab mutaxassislari AQSHda malaka oshirib qaytdi.

Andijon davlat tibbiyot institutining davolash ishi stomatologiya fakultetlari ta’lim dasturlari Qozog‘iston Respublikasining ECAQA (The Euroasian Sentre for Accreditation and Quality Assurance in Higher Education and Health Care) markazi tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi.

Institutda xorijlik mutaxassislarni jalb etgan holda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tilishini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Hindiston, Belarus, Ukraina, Isroil, Ozarbayjon, Turkiya davlatlaridan xorijiy mutaxassis va professorlar institutda bo‘ldi. Ular tomonidan talabalar, magistrant va mutaxassislar uchun darslar, ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulot va mahorat darslari o‘tkazildi.

Germaniyaning Rostok tibbiyot universiteti Urologiya kafedrasi professori Oliver Xakenberg bilan 3 yilga mo‘ljallangan mehnat shartnomasi tuzildi. Shu davr mobaynida professor institutimiz talabalariga o‘z bilim va tajribalarini berib boradi.

Bundan tashqari, institut professor-o‘qituvchilari, mutaxassislarining xorijiy oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot markazlarida tajriba va malakasini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Institutning professor-o‘qituvchilari Kanada, Rossiya, Germaniya, Belarus, Turkiya, Latviya, Xitoy, Koreya, Hindiston singari qator davlatlarda bo‘lib, malaka va tajriba oshirib qaytdi.

Birgina shu yilning o‘zida institutda dunyoning ko‘plab mamlakatlaridan tashrif buyurgan mutaxassislar ishtirokida tibbiyotning turli soha va yo‘nalishlaridagi dolzarb muammolar, ularni hal etish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalariga bag‘ishlangan qator xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazildi. “Profilaktik tibbiyotda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash”, “O‘zbekistonda perinatal tibbiyot: bugun va ertaga”, “Xirurgiya va kombustiologiyaning dolzarb muammolari” mavzularidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar shular jumlasidandir.

Bir so‘z bilan aytganda, Andijon davlat tibbiyot institutida yuqoridagi kabi xalqaro hamkorlik ko‘lami kengayib, amaliy natijalar salmog‘i ortib bormoqda.

Faxriddin UBAYDULLAYEV, Zuhriddin UMRZOQOV (foto), O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zolari.

MEROSXŮRLAR DIQQATIGA!

Андижон шаҳри, Тахтакўприк МФЙ, Байналминал кўчаси, 96-уй, 10-рақамли квартирада яшаб, 2020 йил 3 ноябрь куни вафот этган марҳум **АБДУЖОББАРОВА ГУЛНОРА ШАХОБУДИНОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Чўлпон шохкўчаси, 189/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ж.С.Мамаюнусов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Майбоғча кўчаси, 7-тор, 1-уйда яшаб, 2021 йил 28 февраль куни вафот этган марҳум **РАҲМАНОВ ДЖАКБАР**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Максудов нотариал идорасига

Хонобод шаҳри, Янги ҳаёт МФЙ, Наврўз кўчаси, 66-уйда яшаб, 2020 йил 8 март куни вафот этган марҳум **UMARALIYEV TAXIRJAN MALIKOVICH,**

Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 151-уй, 43-хонадонда яшаб, 2008 йил 25 февраль куни вафот этган марҳум **ДЖУМАБОЕВА УГУЛЖАН,**

Хонобод шаҳри, Истиқлол МФЙ, Хосил Юлдашев кўчаси, 9/2-уйда яшаб, 2025 йил 25 март куни вафот этган марҳум **SAFIYEV ABDULLAJAN DADASHEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 8 август куни вафот этган **KORABOYEV MUKUMJON PATIDINOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Нўхатак МФЙ, Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Андижон тумани, Полосон МФЙда яшаб, 2024 йил 15 декабрь куни вафот этган **НАЗИРОВ МАРИФБЕК**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Бахт МФЙ, Олтин водий кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Қ.Ғуломжонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 8 ноябрь куни вафот этган марҳум **ABDUXAMIDOV ABDULAXAT XXX,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2000 йил 8 ноябрь куни вафот этган марҳум **УРАИМОВ СОЛИЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Чекёр МФЙ, Хур водий кўчасидаги уйда яшаб, 2002 йил 19 май куни вафот этган марҳум **ХАСАНОВ ТУРҒУНБОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Қайир МФЙда яшаб, 2002 йил 11 февраль куни вафот этган марҳум **БОЗОРОВ ИСМОИЛЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги ҳаёт МФЙда яшаб, 2023 йил 5 декабрь куни вафот этган марҳум **XABIBULAYEV ERGASH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишингиз сўралади.

XURMONING FOYDALI VA ZARARLI XUSUSIYATLARI



Xurmo — mazali va foydali meva.

Xurmo nimasi bilan foydali?

Qarishni sekinlashtiradi va ko‘rish qobiliyatini yaxshilaydi

Barcha apelsinrang mevalarda bo‘lgani kabi, xurmoda ham beta-karotin ko‘rinishidagi A vitamini ko‘p. Organizm 100 gramm xurmodan bu muhim elementning 12 foiz kundalik normasini olishi mumkin.

A vitamini — hujayralarni erkin radikallardan himoyalovchi, qarish jarayonini sekinlashtiruvchi va saraton xavfini kamaytiruvchi kuchli antioksidant.

Bu vitamin o‘tkir ko‘rish qobiliyati garovidir. Uning yetishmasligi insonning kechki payt va qorong‘uda ko‘rish qobiliyatining yomonlashuviga olib keladi.

Bundan tashqari, beta-karotin quyosh ostida kuyib ketmaslikka yordam beradi: u terini ultrafiolet nurlarning zararli ta'siri, qurish va yorilishdan himoyalaydi.

Shunisi muhimki, xurmoda A vitamini aynan beta-karotin ko‘rinishida bo‘ladi. Bu ko‘rish bilan bog‘liq muammolar, terining ko‘chishi, suyaklardagi og‘riqlar va buyraklar kasalliklarini keltirib chiqaruvchi dozani oshirib yuborish xavfini kamaytiradi.

Xurmo o‘z tarkibidagi yana bir antioksidant bilan maqtana oladi. Bu - immunitet himoyachisi sifatida mashhur C vitamini. 100 gramm mevada shu vitamin kundalik normasining 10 foizi mavjud.

Xurmoda monosaxaridlar: glyukoza va fruktoza ko‘p bo‘lgani uchun ham shirin. Bu shakarning eng foydali turi. U yurakni mustahkamlab, kayfiyatni ko‘taradi, qomatga esa saxarozachalik kuchli ta'sir ko‘rsatmaydi.

Xurmoda kaliy va magniyning ko‘pligi — tomirlar devori va yurak mushaklari mustahkamligi garovi.

Xurmo peshob haydovchi xususiyatga ega, chunki unda suv ko‘p. U inson tanasidan ortiqcha suvlarni chiqarib, shishlarni ketkizishda yordam beradi. Bunda organizm kaliyni yo‘qotmaydi: bu makroelement xurmo tarkibida bor, shunday ekan, yo‘qotishlar to‘ldiriladi.

Xurmoning salbiy xususiyatlari ham mavjud. Qabziyatni keltirib chiqaradi.

Terining sarg‘ayishiga olib kelishi mumkin.

Nechta xurmo yeyish mumkin? Xurmoni me’yorida iste’mol qilgan ma’qul. Sog‘lom katta yoshli kishilarga kuniga 4 tadan ko‘p bo‘lmagan xurmo mevasini yeyish tavsiya etiladi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA tayyorladi.

ABDULLA AHMAD

YOT

(Hikoya)



Hojal buvi yotib qoldi. Boshi aylanib, ko‘zi tinadi… Shu mahal buvining ko‘nglidan nimalar o‘tmaydi… Kelin bo‘lib tushibdiki, tinganini bilmaydi. Turmush o‘rtog‘i Elmurod aka xo‘jalikda brigadir edi. Erining yoniga kirib, g‘o‘za chopdi, suv tutdi. Pillachilik zvenosini boshqardi. Ro‘zg‘or butunchiligini ko‘zlab, o‘zini o‘tga, cho‘qqa urdi. Erim brigadir deb qarab turmadi. Qandayin yumush bo‘lsa, jon dildan bajardi.

Bugun nafaqada… Xayol daryosiga g‘arq bo‘lib, shaddod dugonalari bilan dalani boshlariga ko‘targuday xandon otib kulganlari, kim o‘zarga paxta terganlarini orziqib, sog‘inib eslaydi. U kunlar oqar suvday o‘tdi - ketdi. Endi madori ketgan… Vujudi xasta.

Kichik o‘g‘li Mahmudjon shahardagi shifokorga ko‘rsatdi. U: “Hechqisi yo‘q, tuzalib ketasiz” - deya bir talay dori yozib berdi. Mahmudjon shu kunlar kamxarjroq. Doriga qayerdan pul topsam deb boshi qotdi. Lekin buviga sezdirmadi.

Kenjasining xayolidan nima o‘ylar kechayotganligini Hojal buvi sezib turardi. Bir ko‘ngli: “Nega buncha o‘y surayapsan, bolam!. Akangga aytarmiz, qarashib yuborar” demoqchiyam bo‘ldi. Lekin aytishga tili bormadi. U paytlar bolalarining otasi Elmurod aka hayot edi. Zayniddin bilan Mahmudjonni uylantirishgach, ulardan qay birini hovliga chiqarish haqida gap bordi. Shunda Hojal buvining ukasi Abdumalik tog‘a: “Zayniddin es-hushini tanib, ancha mustaqil bo‘lib qoldi. U chiqsa bo‘lar” devdi. Bu gap Elmurod akaga ham ma’qul keldi.

Ko‘plashib, imoratni bitkazishdi. Zayniddin ko‘ch-ko‘ronini ortib chiqib ketdi. Oldinlari to‘ng‘ichi o‘tgan-ketganda ota uyiga tez-tez kirib turar, ba’zi yumushlarni bajarishda yordamlashardi. Endi qayoqda… Kelsayam, qosh-qovog‘i solig‘liq. O‘n gapga bir sado chiqmaydi. Nimadandir quruq qolganday, tumshaygani-tumshaygan. O‘zi chiqib, ota uyida Mahmud qolganidan norozi. Buni sirtiga chiqarmaydi. Xatti-harakatlari, tagdor, pichingli so‘zlari sezdirib qo‘yadi. Hojal buvi buni biladi. Shuning uchun to‘ng‘ichiga yordam ber, deb aytgisi kelmadi. Mahmudjon ishxonasidan qarz olib, dorilarni keltirdi. Bu orada buvi kasalxonada yotdi. Tuzalib chiqqach, quvvat inib, eshik oraga kirib chiqadigan bo‘ldi.

Mayning o‘rtalari. Kunlar isib, qish bo‘yi diqqinafas bo‘lgan odamlar o‘zini tashqariga uradigan payt. Tomchilab boshlangan yomg‘ir jalaga aylandi. Qani tinaqolsa. Bog‘lar suvga to‘ldi. Ariqlardan toshgan suv ko‘chalarni bosdi. Jaladan so‘ng kuchli shamol turdi. Shamol ilingan narsani chirpirak qilib uchirdi. Daraxtlar quladi. Shoxlari qarsillab sindi. Omonat devorlar yiqildi. Derazalarning oynasi chil-chil sindi.

Yaxshiyam jala boshlanmay Hojal buvini boshqa xonaga olib o‘tishgani. Ertalab qarashsa, buvi avval yashab turgan xona qulab yotibdi. Shu uy qurilganigayam o‘ttiz yildan oshdi. O‘sha paytlar Elmurod akaning qo‘li kaltalik qilib, uyni amal-taqal bilan qurgandi. Poydevori past. Oqibatda devoridan darz ketib, tutday to‘kildi.

Mahmudjon shoshib qoldi. Nima qilsa bo‘larkin? Buvi tinchgina o‘tirishni xush ko‘radi. Nabiralarining chuv-chuvi toliqtirib qo‘yadi. Onasining uyini tezroq bitkazishi lozim. Lekin qanday qilib? Imoratga g‘isht kerak, bolor… taxta, shifer deganday. Xomcho‘t qildi. Ancha mablag‘ ketadi. Bisotida dadasidan qolgan ko‘hna “Moskvich”dan bo‘lak hech vaqo yo‘q… U bir kun yursa, uch kun buzuq.

Qarab turgan bilan ish bitmaydi. O‘ychining o‘yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitadi. Shuni o‘ylab, Mahmudjon bilan xotini Gulchaman g‘isht qo‘yishga kirishdilar. Gulchaman suv ochdi. Mahmudjon loy qordi. Biri loyni zuvala qilsa, biri qolipga soldi.

Mahmudjon fabrikada bog‘bon. G‘isht qo‘yib bo‘lingach, “ko‘rinib kelay” deb ishxonasiga ketdi. Xotini nami qochgan g‘ishtlarni taxladi. G‘isht bitdi. Qolganichi? Mahmudjon o‘ylab, o‘yiga yetolmadi. “Moskvich”ni sotay desa, bu matohga xaridor yo‘q. Ikki marta bozorga olib tushdi. Hech kim so‘ramadi. Chiptaga kuydi.

Yordam so‘rab akasiga bormoqchi bo‘ldi. Yangasining bir paytlar aytgan so‘zi yodiga tushib, shashtidan qaytdi… Mahmudjon haydovchilik kursida o‘qirdi. To‘loviga pul zarur bo‘lib qoldi. Akasi miq etmay bir dasta pulni ukasining oldiga tashladi. Yangasi Anzirat: “Siz ota uyidan uch qoqqan kunjutday chiqqan bo‘lsangiz, yana ukangiz sizdan yordam so‘raganiga o‘laymi?” - deganicha qovoq uyib, o‘rnidan turib ketdi. Akasi xotinini bir-ikki tarsaki urdi. Mahmudjon qaytib kelaverdi. Shularni o‘ylab: ”Har qancha qiynalsam-da akamga aytmayman. Yangamning ta’nayu dashnomini eshitguncha…” degan qarorga keldi.

Hojal buvi to‘ng‘ichini yo‘qlab, u kelsa aytadigan gaplarini xayolida pishitib qo‘ydi:” Men hayot bo‘laturib, aka-uka kelisha olmayapsizlar. Otang dargohidan oyog‘ing uzilib qoldi… Akayam otaday. Jigaringni yolg‘izlatma. Kunora, bo‘lmaganda hafta sari kirib tur”.

Shom aralash Zayniddin keldi. Bir lahza aka-uka taxlangan g‘ishtni, qurilajak uy o‘rnini ko‘zdan kechirishdi. So‘ng buvi turgan xonaga kirishdi. Ona-bola ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashishdi. Buvi to‘ng‘ichini anchadan beri ko‘rmagan edi. Shundanmi o‘g‘lini bag‘riga bosarkan, ko‘zlariga quyilib yosh keldi: “Nega yig‘laysiz ona?” dedi Zayniddin ovozini baralla qo‘yib:

– Kelinингiz buvim kelsin deptilar desa, tobingiz qochdimi deb, rosa xavotirlandim. Otday bardamsiz-ku! Nega o‘takamni yordingiz? Kelaman, ona, kelib turaman. Axir, nima qilay? Bir yog‘i xizmatchilik, bola-chaqa tashvishi…. Xo‘p, bo‘pti, men ketdim. Yaxshi o‘tiringlar.

Zayniddin ko‘chaga chiqqach, bir-ikki qadam yurdida, so‘ng birdan to‘xtab, orqasiga burildi: “Mahmud, onamizga yaxshi qara, parvarish qil. Onamizni senga topshirganmiz. Bir gap bo‘lsa… xabar qil… uqdingmi?!»

«Uqdim aka, uqdim».

Bechora buvi. To‘ng‘ichining sovuq muomalasiyu, ko‘ngilga botadigan so‘zlaridan o‘ylab yurgan gaplarini unutdi. Aniqrog‘i, aytgisi kelmadi. Undan dili og‘ridi. O‘z farzandidan begonasiraganday bo‘ldi.

Bahor, so‘ng yoz ham o‘tdi. Kuz keldi. Buviga atab solinayotgan uyni bitkazishga Mahmudning qurbi yetmadi. Birovdan qarz olsa, erta bermog‘i bor. Qilichini yalang‘ochlab qish keladi… Mahmudjon bilan ayoli Gulchaman xavotirga tushdilar: “Afsus, uy bitmadi. Onamizning oldilarida uyatli bo‘ldik. Nima ham qilardik. Osmon uzoq, yer qattiq”.

Yo‘q! Osmon uzoq, yer qattiq emas ekan. Kechki payt Mahmudjonni mahalla raisi yo‘qladi. Borsa, faollar jamuljam. Mahalla raisi hol-ahvol so‘radi, buvining sog‘ligini surishtirdi. So‘ng: ”Ertaga uyda bo‘ling. Ustalar borishadi. Lozimatini o‘zimiz yetkazamiz. Faollarning qarori shunday”, - dedi.

Hafta ichida hashar bilan uy bitdi. Onaxon bu yerda uch oygina yashadi. So‘ng bandalikni bajo keltirdi. Ona tobutini ko‘tarish Zayniddinga nasib etmadi. U o‘sha kunlar olis shaharda o‘z tashvishlari bilan yurardi.

“Yoshlik” jurnali, 2014 yil, 11-son.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 21.10.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 21.10.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li